

BRAYL ALIFBOSIDAN TA'LIM JARAYONIIDA FOYDALANISH**Rahmatullayeva Umidaxon Ulug'bek qizi,¹**¹ Andijon davlat universiteti folklorshunoslik va dialektologiya yo'nalishi magistranti.

E-mail: umidahonrahmatullaeva@gmail.com

**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 13.06.2025**Revised: 14.06.2025**Accepted: 15.06.2025*

Ushbu maqolada Brayl alifbosining ona tilidagi o'rni va ahamiyati, uning lotin yozuvi bilan uyg'unlashuvdag'i muammolari haqida fikrlar bayon etiladi.

KALIT SO'ZLAR:

Brayl alifbosi, ona tili, ko'zi ojiz, o'zbek yozuvi, maxsus belgilar, nashriyot.

KIRISH. Jamiyatimizda sog'lom kishilar bilan bir qatorda ko'rish imkoniyati cheklangan insonlarni ham uchratamiz, Ularni ham bilim olishda, mehnat qilishda boshqalardan qolishmayo'tganligini kuzatamiz. Darhaqiqat, ko'zi ojiz insonlar doim zamon bilan hamqadamlikda ortda qolmaslik uchun o'z ustida muntazam shug'ullanadilar. Buning natijasida ayrim jabhalarda ustunlikka ham erishganlarini guvohi bo'lamiz. Ko'zi ojiz insonlar deganda shunchaki hech narsani ko'rmaydiganlar emas, balki, dunyoni o'zgacha nigoh bilan, ya'niki, qalb nigohi bilan ko'ra oladiganlar degan tushunchani ilgari sursak to'g'ri bo'ladi. Ular Jamiyatning to'laqonli ishtirokchisi bo'lishlari uchun hayotida ko'p qiyinchiliklarni yengib o'tadilar.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi: Butun jahon bo'yicha ko'zi ojizlar kuni sifatida 13-noyabr sanasi nishonlanadi. ushbu sananing tarixiy ildizlari nogironlar huquqlari harakati va inklyuziv jamiyat uchun kurashdan iboratdir. Ko'zi ojizlar uchun maxsus kunni belgilash g'oyasi birinchi marta 20-asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) inklyuziya va inson huquqlari masalalarini hal qilishda faol qatnashgan bo'lib, ko'rishda muammosi birlarning hayotini yengillashtirish va ularga e'tibor berish g'oyasini olg'a surgan. Butun Jahon ko'zi ojizlar kuni paydo bo'lishi

1984-yilda Butunjahon ko‘zi ojizlar ittifoqi ko‘zi ojizlar va zaif ko‘rvuchilar muammolariga bag‘ishlangan maxsus kunni belgilashni taklif qildi. Ushbu taklif Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) va ko‘plab mamlakatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. 13-noyabr fransuz pedagogi va ixtirochisi Lui Brayl (1809-1852) tavalludini nishonlash uchun tanlangan.

Lui Braylning o‘zi ko‘zi ojiz edi va Brayll alifbosini yaratdi. bu esa ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan odamlar uchun ta’lim va muloqot sohalarida katta yutuq bo‘ldi. Butunjahon ko‘zi ojizlar kuni ko‘zi ojizlar duch keladigan muammolarni faol muhokama qilish va hal etish, shuningdek, ularning qobiliyatlari va jamiyatga qo‘sghan hissasini ta’kidlash sanasiga aylandi. Ko‘pgina mamlakatlar va tashkilotlar ushbu kundan xabardorlikni oshirish va inklyuziv tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazish uchun foydalanadilar.

Brayl alifbosi bo‘rtiq nuqtalarga asoslangan maxsus alifbo bo‘lib, ko‘zi ojiz insonlarning savod chiqarishi uchun 1825-yilda fransuz tiflopedagogi Lui Brayl tomonidan yaratilgan. BMT Bosh Assambleyasining 2006-yil 13-dekabrda qabul qilingan rezolyutsiyasida Brayl alifbosi ko‘zi ojizlar va zaif ko‘rvuchilar uchun asosiy yozma muloqot vositasi ekanligi qayd etilgan. Mazkur xalqaro kun Brayl alifbosining ko‘zi ojizlar va zaif ko‘rvuchilar o‘rtasida savod chiqarish, ta’lim olish, ma’rifiy savodxonlikni oshirishdagi ahamiyatini xalqaro miqyosida e’tirof etish, bu yozuvda o‘quv, ilmiy, siyosiy va badiiy adabiyotlarni nashr qilishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida nishonlanadi. 2018-yil 17-dekabrda qabul qilingan BMT Bosh assambleyasining qaroriga muvofiq 2019-yil 4-yanvar kuni birinchi marotaba Butunjahon Brayl alifbosi kuni nishonlandi. 2020-yildan boshlab “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi ham zamonaviy texnikalar yordamida Brayl yozuvidagi darsliklar hamda badiiy adabiyotlarni chop eta boshladi.

Respublika ta’lim markazi tomonidan ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun chop etilayotgan Brayl alifbosidagi darsliklarga bo‘rtma shakldagi rasmlar va xaritalar kiritildi. Shunga qaramay ayni paytda O‘zbekistonda ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvchi bolalar va yoshlar uchun Brayl alifbosidagi o‘quv materiallari keskin tanqisligi kuzatilmoqda. 2022-yil 26-dekabrdan boshlab tashkilotimiz ko‘zi ojiz yoshlar uchun "PRAXIS PLUS" MCHJ ijtimoiy korxona qoshida Brayl bosmaxonasini tashkil etish loyihasini amalga oshirib kelmoqda. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan imkoniyati cheklangan shaxslarga nisbatan berilayotgan e’tibor va imkoniyatlar ko‘lami tobora kengaymoqda.

Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir”⁶⁰

⁶⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 03.08.2017 dagi O‘zbekiston ijodkor ziyyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi, www.president.uz

mazmunidagi fikrlari ko‘zi ojiz yoshlarni ham san’at va adabiyotga jalg qilish, kitobxonlik madaniyatini oshirish yuzasidan amaliy ko‘rsatma sifatida xizmat qilmoqda. Zero, yurtboshimiz yuksak ite’dodli ko‘zi ojiz yoshlar qatlamini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha g‘amxo‘rdirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 22-iyulda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 11-sentabrda ma’qullangan O’RQ-641-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi” qonunining 8, 38, 40-moddalari asosida bugungi kunda ko‘zi ojiz bolalar ta’lim-tarbiyasiga davlatimiz tomonidan katta e’tibor va imkoniyatlar berilmoqda. Shuningdek, bu qonunning 8-moddasida qayd etilgan “Nogironligi bo‘lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o‘z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish prinsipi”⁶¹ dan kelib chiqib nogironligi bo‘lgan bolalarni har tomonlama va uyg‘un rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, mehnatga bo‘lgan qiziqishiga ko‘maklashish, ta’limga, ilm-fanga, texnikaga, san’at va sportga jalg etish maqsadida nogironligi bo‘lgan bolalar manfaatlari, ularga nisbatan bajariladigan barcha harakatlarda ustuvorlik yaqqol seziladi.

Ushbu qonunning 38, 40-moddalarida yozilishicha, davlat organlari nogironligi bo‘lgan shaxslarning har biri uchun mosroq bo‘lgan tillarni, muloqot qilish usullari va vositalarini rivojlantirish, Brayl alifbosini, muqobil harflarni, nutq va og‘zaki muomala ko‘nikmalarini o‘zlashtirish, shuningdek o‘qituvchilarni va maktab xodimlarini inklyuziv ta’lim masalalarida o‘qitish, imo-ishora tilini va Brayl alifbosini biladigan nogironligi bo‘lgan o‘qituvchilarni ta’lim muassasalariga ishga joylashtirish yordamida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ko‘makdosh bo‘lgan loyihibar tahsinga sazovordir.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-57-sonli qaroriga muvofiq: “Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa’dullayev) Yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan har yili 500 nafargacha nogironligi bo‘lgan yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida quyidagi yo‘nalishlar uchun subsidiya ajratib borish tizimini joriy etsin:

Muhokama va natijalar: Dunyo tarixiga nazar tashlasak, insoniyat yaratilgan davrdan boshlab turli tuzumlarni bosqichma-bosqich boshidan o‘tkazdi. Jumladan, har bir dunyoga kelgan inson ongi va dunyoqarashi kengayib, uning yashash sharoiti ham takomillashib boravergan. Dunyo aholisi son jihatdan asrdan-asrgacha tobora ko‘payib borgan. Sog‘lom kishilar qatorida ko‘rish qobiliyati cheklangan kishilar ham dunyoga kelgan. Eramizgacha VI-VII asrlarda yashab ijod qilgan buyuk Xitoy olimi va faylasufi Konfutsiy (551-479) ko‘zi ojizlarning xotirasi kuchliligi va boshqalarga nisbatan yaxshiligiga birinchi bo‘lib

⁶¹ ORQ-641-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi”, 8-modda, 21.12.2020, www.lex.uz

e'tibor qaratgan. Hozirgi kunda Respublikamizda ko'rish qobiliyati cheklangan fuqarolarga xizmat ko'rsatuvchi maxsus kutubxonalar, maxsus maktablar tashkil etilgan. O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyat dunyo sari yuz tutib, Yevropa, Osiyo ko'zi ojizlar uyushmalari, assambleyalari bilan yaqin aloqa o'rnatgan, Osiyo va Jahon ko'zi ojizlar uyushmalariga teng huquqli a'zo bo'lib qo'shilgan. Jamiyat a'zolarining ta'lim tarbiya olishda, madaniy-ma'rifiy, siyosiy-ommaviy saviyasini oshirishda joylarda ularga xizmat ko'rsatayotgan klublar, madaniyat uylari, ma'naviyat burchaklari, kutubxonalar, maxsus maktab-internatlari faoliyati alohida o'ringa loyiqidir.

O'zbek tilida yigirma to'qqista harf bo'lib, brayl yozuvida barcha harflar maxsus pribor va grifel qurollari yordamida yoziladi. Pribor o'n sakkiz yo'l va har bir yo'li yigirma to'rt katakdan iborat. Har bir katakda oltitadan nuqta joylashgan. Anashu oltita nuqta orqali harflar va tinish belgilari hosil bo'lgan. Harflar va tinish belgilarining joylashgan nuqtalar o'rni quyidagicha:

A birinchi, b birinchi ikkinchi, d birinchi to'rtinchi beshinchi, e birinchi beshinchi, f birinchi ikkinchi to'rtinchi, g birinchi ikkinchi to'rtinchi beshinchi, yumshoq h birinchi to'rtinchi beshinchi oltinchi, i ikkinchi t'rtinchi, j ikkinchi to'rtinchi beshinchi, k birinchi uchinchi, l birinchi ikkinchi uchinchi, m birinchi uchinchi to'rtinchi, n birinchi uchinchi to'rtinchi beshinchi, o birinchi uchinchi beshinchi, p birinchi ikkinchi uchinchi to'rtinchi, q birinchi uchinchi to'rtinchi beshinchi oltinchi, r birinchi ikkinchi uchinchi beshinchi, s ikkinchi uchinchi to'rtinchi, t ikkinchi uchinchi to'rtinchi beshinchi, u birinchi uchinchi oltinchi, v ikkinchi to'rtinchi beshinchi oltinchi, qattiq x birinchi ikkinchi beshinchi, y birinchi ikkinchi uchinchi to'rtinchi oltinchi, z birinchi uchinchi beshinchi oltinchi, o' birinchi ikkinchi, uchinchi oltinchi, g' birinchi ikkinchi to'rtinchi beshinchi oltinchi, sh birinchi beshinchi oltinchi, ch birinchi ikkinchi uchinchi to'rtinchi beshinchi nuqtalarga joylashgan. Ng harfi ikkita katakka yoziladi. Birinchi katakka birinchi uchinchi to'rtinchi beshinchi n harfini yozib, yonidagi katakka o'tib, birinchi ikkinchi to'rtinchi beshinchi g harfini yozamiz. Tutuq belgisi uchinchi nuqtaga yoziladi. Lotin yozuvida ham, o'zbek-kril yozivida ham hamma harflar, tinish belgilaridagi nuqtalar o'rni bir xil joylashgan, lekin o'zbekcha krilda ya, yu, yo, e, c, ye, tutuq belgilarning nuqtalarida o'zgarish bor. Ya birinchi ikkinchi to'rtinchi oltinchi, yu birinchi ikkinchi beshinchi oltinchi, yo birinchi oltinchi, e ikkinchi to'rtinchi oltinchi, c birinchi to'rtinchi, ye birinchi beshinchi tutuq belgisi birinchi ikkinchi uchinchi beshinchi oltinchi, yumshatish belgisi ikkinchi uchinchi to'rtinchi beshinchi oltinchi nuqtalarga joylashgan.

Brayl yozuvida tinish belgilarining yozilishi: Nuqta ikkinchi beshinchi oltinchi, vergul ikkinchi, so'roq ikkinchi oltinchi, undov ikkinchi uchinchi beshinchi, nuqtali vergul ikkinchi uchinchi, chiziqcha bilan tirening nuqtalari bir xil, uchinchi oltinchi, , ona tilida ishlataladigan qavis ochiq ikkinchi uchinchi beshinchi oltinchi, yopilishi ham xuddi shunday, qo'shtirnoqning ochilishi ikkinchi uchinchi oltinchi, yopilishi uchinchi beshinchi oltinchi. Ushbu harflar yassi yozuv alifbosiga moslanmagan. Yuqoridagi fikrlarda

ta'kidlanganidek, brayl yozuvi maxsus bo'rtma nuqtalardan iborat. Priborga varaqni joylashtirib, O'ng tomondan yoziladi, pribordan varoqni chiqargandan so'ng matnlarni barmoqlarimiz orqal chap tomondan o'qiladi. Yana bir jihat, xatolarni o'chirib, to'g'rilash biroz qiyinroq kechadi. Sog'larning o'chirgichi alohida bo'ladi. Ular daftaridagi xatolarni o'sha o'chirgich orqali o'chirib, to'g'rilashaveradi va to'g'rilaqan xatolarini bemalol o'qish imkoniga ega. Braylda esa bundan mustasno. Agar bitta so'z yoki gapda butunlay xato qilingan bo'lsa, grifilning o'zida o'chirib, qayta yozishga to'g'ri keladi. Grifilda harflar tiniq o'chirilmaydi, qayta to'g'rilaqan gap yoki so'zlardagi harflar ustma-ust yozilganga o'xshab qoladi. Shuning uchunni o'qiyotganimizda barmoqlar sezmay qoladi. Matnlarni yozish jarayonida birorta harfga ortiqcha nuqta sanchilib qolsa, uni barmoq bilan ham, grifil bilan ham o'chirish mumkin. Masalan: olim so'zini yozganda, o harfi birinchi uchinchi beshinchi nuqtalarga sanchilayotganida oraga ikkinchi nuqta ham qo'shilib, r birinchi ikkinchi uchinchi beshinchi harfi yozilib qoldi. O'sha so'zni o'qiyotganda r harfidagi ikkinchi nuqtani o'chirsak yana birinchi uchinchi beshinchi o harfi hosil bo'ladi.

Dialektologik tadqiqotlarni tashkil qilishda brayl alifbosidan foydalanish mavzusi dolzarbdir. Ushbu tadqiqot kelgusida ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanuvchi ko'zi ojiz izlanuvchilarga brayl alifbosi asosida transkripsion belgilarni ishlab chiqish va shu asosida tadqiqod olib borishga tavsiyalar beradi va quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. O'zbek dialektologiyasida mavjud transkripsion belgilar asosida brayl alifbosidan foydalangan holda "brayl umid" deb nomlangan transkripsion belgilar jamlanmasini ishlab chiqadi.
2. Ushbu jamlanmasi amaliyatga tadbiq qiladi.
3. Ma'lum bir hududga xos bo'lган shevalarni o'rganadi.

Sog'lom talabalar o'zbek dialektologiyasi yoki folklorshunoslik fanidan ekspiditsiyaga chiqqanda hududlardagi xalq og'zaki ijodi materiallari yoki shevalarni yig'ib yozishda, transkripsion belgilardan foydalanadilar. Shevalarni oddiy harflarda yozish va o'qish biroz noqulaylik tug'dirar ekan, Ushbu qiyinchilikni bartaraf qilish maqsadida yuqorida aytilgan yangi umid brayl transkripsion belgilarini brayl yozuvida kamroq qo'llaniladigan nuqtalardan foydalanib, ishlab chiqishda unli tovushlar, undosh tovushlar hamda diokretik belgilar o'sha nuqtalar orqali hosil bo'lsa, ko'zi ojiz talabalar ham sog'lom talabalar singari amaliy mashg'ulotlarda transkripsion belgilaridan qiyinchiksiz brayl usulida foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, brayl alifbosi ko'zi ojizlarga barcha yoshlar kabi teng bilim olishlari uchun o'qish va yozish imkonini beradi. Yaratilayotgan barcha sharoitlar, imkoniyatlardan unumli foydalanib, yuksak marralar sari intilib, o'zları istagan sohalar bo'yicha Bilimga ega bo'lishlari, vatan ravnaqiga hissa qo'shishlariga imkon beradi.

Ma'lumki, avvallari ko'zi ojizlarga unchalik e'tibor qaratilmagan. Oliy o'quv yurtlarida bitta yoki ikkita ko'zi ojiz talabalar ta'lim olar edi. 2016- yildan boshlab, prezidentimiz tomonidan mamlakatimizdagi ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan yoshlarga oliy o'quv

dargohlarida tahsil olish uchun imkoniyat yaratildi. Respublikamiz oliv o‘quv yurtlari bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi, magistratura bosqichlarining ko‘plab sohalari bo‘yicha alohida kvotalar ajratildi. Yildan-yilga kvotalar soni ortib, ko‘zi ojiz talabalar safi ham kengayib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoev Sh. M. O’zbekiston ijodkor ziyorilari vakillari bilan uchrashuvi” ma’ruza. 03.08.2017 www.president.uz
2. ORQ-641. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi”. 8-modda. 21.12.2020. www.lex.uz
3. PQ-57. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. 21.12.2021, www.lex.uz
4. PQ-209. “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta’lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 1-band. 18.04.2022. www.lex.uz
5. Abdurahmonov Q. V., & Toxirovna, Z. A. Bolalar musiqa va san’at mакtablarida ko‘zi ojiz bolalarni o‘qitilishiga oid ayrim mulohazalar//Ta’lim, tarbiya va innovatsiyalar jurnali, 2025. – 1(4), 146-150 b.
6. Astanova, Z., & Baratov, M. IMKONIYATICHEKLANGAN (KO’ZIOJIZ) YOSHLARNI IJTIMOIY HAYOTGA MOSLASHTIRISH YO ‘LLARI. Science and innovation, 2022. – 1(B6), 878-882 b.
7. Baratov, M. TECHNOLOGIES FOR WORKING WITH GIFTED BLIND CHILDREN. Science and innovation, 2024. – 3(B10), 10-16 b.